

AYOLLAR POYABZALI KONSTRUKSIYASI, ZAMONAVIY YO'NALISHLARI VA ILMIY ADABIYOTLAR TAHLILLARI

Tursunkulova Maxsuda Suyarkulovna

*Buxoro davlat – texnika universiteti “Yengil sanoat muhandisligi va dizayn”
kafedrasi t.f.n.(PhD) E-mail: tursunkulovamaxsuda83@gmail.ru*

Raxmatova Ozoda Xusen qizi

Buxoro davlat – texnika universiteti magistri

Annotasiya: *Ayollar poyabzallari dizayni va konstruktsiyasini takomillashtirish borasida xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan bir qator ilmiy izlanishlar olib borilgan. Xorijiy manbalarda asosan poyabzalning ergonomik qulayligi, baland qo'njli va past qo'njli modellarning anatomik tuzilishi, shuningdek, ekologik toza materiallardan foydalanish masalalariga katta e'tibor qaratilgan.*

Kalit so'zlari: *Ayollar poyabzali, milliy poyabzal, dizayn, konstruktsiya, innovatsion texnologiyalar, ergonomika, zamonaviy moda, milliy an'analar, etno-dizayn, kompozitsiya, biomexanik tahlil, 3D modellashtirish, ekologik materiallar, xalq amaliy san'ati, estetik yechimlar, funktsional qulaylik, milliy naqshlar, zamonaviy tendentsiyalar, moda yo'nalishlari, yangi konstruktiv yechimlar.*

KIRISH

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 26-fevraldagi “Charm-poyabzal va mo'ynachilik sohalarida tayyor mahsulot ishlab chiqarishni qo'llab-quvvatlashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”1gi PQ-143-son qaroriga asosan charm-poyabzal va mo'ynachilik sohalarida amalga oshiriladigan investitsiya loyihalarini moliyalashtirishdan iborat. Xalqini kelajak ravnaqi uchun yuqori talablarga javob beruvchi sifatli xalq iste'mol mollarini, shu jumladan charm buyumlari va mahsulotlarini ko'paytirishga katta ahamiyat berilmoqda.

Aholining charm buyumlariga bo'lgan ehtiyojini qondirish uchun charm mahsulotlar sanoatida ishlab chiqarish hajmini va uni sifatini yanada oshirish talab etiladi. Bunga korxonalarini samaradorligini oshirish, mehnat unumdorligini o'stirish, hozirgi zamon talablariga javob beradigan, raqobatbardosh, mahsulot ishlab chiqarishga erishish ko'zda tutiladi.

Charm buyumlar deb, oxirgi asrgacha faqat charmdan tayyorlanuvchi keng iste'mol mollariga aytilib, bu poyabzal va Charm-attorlik mahsulotlaridir. Hozirgi vaqtda charmdan tashqari juda ko'p sintetik va sun'iy materiallar ishlatilishiga qaramay, poyabzal, jomadon, qo'lqop va boshqa attorlik mahsulotlari qisqa qilib charm buyumlari deb ataladi.

Bu mahsulotlarni ishlab chiqarishda alohida joy poyabzal korxonalariga ajratilib, uni oldida poyabzalni modellashtirish, loyihalash ishlab

10'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 26-fevraldagi "Charm-poyabzal va mo'ynachilik sohaslarida tayyor mahsulot ishlab chiqarishni qo'llab-quvvatlashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-143-son qarori

chiqarish texnologiyasi, uni tashkil kilish va ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirish, assortimentlik guruhlarini rivojlantirish, poyabzal sifatini yaxshilash kabi muhim vazifalarini yanada takomillashtirish ko'zda tutiladi.

Shuni ta'kidlash kerakki, poyabzal va charm-attorlik korxonalarida asosan charm mahsulotlarini modellashtirish va konstruksiyalash, ya'ni mahsulotlarni bichish uchun andozalar yaratish kabi ishlar bajariladi va uni yig'ish, qoliplar, padozlash natijasida maqsadga muvofiq qurilma hosil bo'ladi.

O'zbekistonda ayollar poyabzali dizayni va tayyorlovi bo'yicha ilmiy-amaliy ishlanmalar va tashkilotlar barcha yo'nalishlarda cheklangan bo'lsa-da, bir qancha muhim yoki qiziq manzaralar mavjud:

Ayollar poyabzalining yangi konstruksiyasi va dizayni bo'yicha hozirgi kunda xorijiy va respublikamiz olimlari tomonidan turli ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Zamonaviy modaning rivojlanishi, ekologik toza materiallardan foydalanish, ergonomik shakllar va qulaylikka urg'u berish bugungi dizayn yo'nalishlarining asosini tashkil etadi.

Xorijiy olimlar izlanishlari: Yevropa mamlakatlarida (Italiya, Ispaniya, Fransiya) ayollar poyabzallari dizaynida tabiiy charm o'rniga qayta ishlangan ekologik materiallardan foydalanish tendensiyasi kuchaygan. Masalan, italiyalik dizaynerlar tomonidan ishlab chiqilgan "eko-poyabzal" loyihalarida qayta ishlangan charm, tabiiy paxta va o'simlik yog'idan olingan bo'yoqlar qo'llanilmoqda. AQSh va Koreya olimlari esa 3D texnologiyalar yordamida oyoq shakliga mos poyabzal qoliplarini ishlab chiqish ustida ishlashmoqda.

O'zbekiston va MDH olimlarining ishlari: Respublikamizda ham poyabzal ishlab chiqish sohasida yangi texnologiyalar tatbiq etilmoqda. Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti, Buxoro davlat texnika universiteti olimlari ayollar uchun ergonomik va milliy naqshlarga ega poyabzal modellarini yaratish bo'yicha tadqiqotlar olib bormoqda. Mahalliy dizaynerlar milliy bezak elementlarini zamonaviy shakllar bilan uyg'unlashtirishga alohida e'tibor qaratishmoqda.

Asosiy yo'nalishlar quyidagilar:

- ☒ Yengil vahavo o'tkazuvchi tabiiy materiallardan foydalanish;
- ☒ Qulaylikni ta'minlovchi anatomik tagliklar ishlab chiqish;
- ☒ Milliy naqshlar, kashtalar va bezak elementlarini dizaynga kiritish;
- ☒ 3D-modellashtirish asosida individual konstruksiyalar yaratish;
- ☒ Ilmiy tadqiqotlardan misollar

Effect of the Innovative Running Shoes With the Special Midsole Structure on the Female Runners Lower Limb Biomechanics. Bu tadqiqotda sport uslubidagi poyabzal bo'lib ayol yuguruvchilar uchun maxsus mid-sole (ora poyon) strukturasiga ega poyabzallarning oyoq biotexnikasi (biomekhanikasi) ga ta'siri o'rganilgan. Natijada

innovatsion poyabzallar odatiy modellarga qaraganda oyoqdagi bosimni kamaytirishi va harakat ergonomikasini yaxshilashi aniqlangan.

The Influence of Materials on Footwear Behaviour: A Finite Element Simulation Study. Bu maqolada poyabzal ishlab chiqarishda ishlatiladigan materiallarning oyoq va poyabzal o'zaro ta'siriga qanday ta'sir etishi FEM (Finite Element Method) orqali tahlil qilingan. Konstruktsiyada material tanlovi juda muhim. Materialning egiluvchanligi, bosimga chidamliligi, gigiyenik xususiyatlari to'g'ri tanlansa, poyabzalning xizmat muddati va qulayligi oshadi.

Analysis of designs and development of footwear insoles from luffa for medical professionals. O'zbekistonlik olimlar (Toshkent To'qimachilik va Yengil Sanoat Instituti) tomonidan tayyorlangan tadqiqot. Ushbu ishda tabiiy luffa materiali asosida poyabzal ichki tagligi (insole) ishlab chiqilgan. Tabiiy luffa oyoqqa havo o'tkazadi, namlikni yutadi va gigiyenik muhitni ta'minlaydi.

O'zbekiston olimlarining hissasi

The Impact of High-Heeled Footwear on Women: Design Advantages and Ergonomic Assessment. Namangan davlat texnika universiteti olimasi N. D. Nabieva tomonidan yozilgan ilmiy maqola. Bu maqolada ayollar uchun baland poshnali poyabzal dizayni va uning ergonomik ta'siri o'rganilgan. Baland poshnalar go'zallikni oshiradi, lekin salomatlikka salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli dizayn yaratishda estetik va fiziologik muvozanatga erishish zarur.

Tarkibi sintetik iplardan tashkil topgan murakkab toqimalar asosida sport uslubidagi poyabzal ustligi uchun ikki qatlamli trikotaj toqimalarining texnologik ko'rsatkichlari tahlili. M.S.Tursunkulova. Ushbu ilmiy ishlarda asosan poyabzal ishlab chiqish jarayonida foydalaniladigan toqimalar, iplar, texnologik ko'rsatkichlar, shu bilan birga o'zbekiston sharoitidagi tekstil sanoatiga oid tahlillar mavjud.

O'zbekistonda poyabzal dizayni va texnologiyasi yo'nalishida ko'plab tadqiqotlar olib borilmoqda. UZCHARM STYLE xalqaro va respublika dizaynerlar tanlovlarida "Ayollar poyabzali uchun eng yaxshi dizayn" nominatsiyasi mavjud.

Mahalliy olimlar milliy naqshlar, kashtalar va zamonaviy ergonomik shakllarni uyg'unlashtirish ustida ishlamoqdalar.

Ayollar poyabzalining yangi konstruktsiyasini yaratish bo'yicha olib borilayotgan ilmiy izlanishlar shuni ko'rsatadiki, bugungi kunda dizayn va texnologiya bir-biri bilan uzviy bog'liq holda rivojlanmoqda.

Xorijiy olimlar asosan ergonomika, ekologik toza materiallar va 3D modellashtirish asosida individual poyabzal shakllarini ishlab chiqishga e'tibor qaratmoqdalar.

Shuningdek, respublikamizda ayollar poyabzalini ishlab chiqishda milliy naqshlar, tabiiy materiallar va ekologik dizayn tamoyillarini uyg'unlashtirish yo'lida yangi yondashuvlar shakllanmoqda. Bu esa nafaqat go'zallik va estetikani, balki sog'lom yurish, qulaylik va gigiyenik talablarni ham ta'minlashga xizmat qiladi.

Xulosa qilib shuni aytish joizki, ayollar poyabzali dizayni va konstruksiyasini takomillashtirish borasidagi xorijiy hamda mahalliy tadqiqotlar barqaror moda tamoyillariga asoslangan holda, ilmiy-texnologik yondashuvni chuqurlashtirishga olib kelmoqda.

Shu bois, kelgusida bu yo'nalish bo'yicha ilmiy izlanishlarni yanada kengaytirish va xalqaro hamkorlikni kuchaytirish dolzarb vazifalardan biridir.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. 2022-yil 26-fevraldagi "Charm-poyabzal va mo'ynachilik sohalarida tayyor mahsulot ishlab chiqarishni qo'llab-quvvatlashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-143-son qarori.

2. М.С.Турсункулова. Интернаука 2021г. Применение творческих элементов в национальном ремесле.

3. М.С Турсункулова - WORLD OF SCIENCE, 2025. Бухоро миллий либослари-нақшларга боғланган тарих ва санъат.

4. М.С Турсункулова - WORLD OF SCIENCE, 2025. Миллий либослар-миллат руҳининг ифодаси.

5. Poyabzal ustligi uchun ikki qatlamli g'ovakli trikotaj to'qimalarining nam o'tkazuvchanlik xossasini tadqiq qilish. T.M.Suyarkulovna, , X.Q.Madaminovich - Interpretation and researches, 2023

6. Ikki qatlamli trikotaj to'imasidan poyabzal ustligi uchun qollaniladigan materiallarning texnologik va fizik-mexanik ko'rsatgishlari. T.M.Suyarkulovna, X.Q.Madaminovich - Interpretation and researches, 2023

7. Basic theory of air permeability of knitted fabric selected on the basis of mathematical model. M.Tursunkulova, X.Mamatova, - American Institute of Physics Conference ..., 2023

8. Modern analysis of the properties of mixed fiber yarns. M.Tursunkulova, X.Mamatova, PROBLEMS IN THE TEXTILE AND LIGHT ..., 2023